XALQ DEPUTATLARI DEHQONOBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 28-fevral VII-6-38-4-57-K/25 Dehqonobod tumani

Dehqonobod tuman mahalliy budjetining 2025-yil uchun tasdiqlangan parametriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 27-moddasiga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentyabrdagi “Kambag‘allikdan faravonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-330-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining 2024-yil 31-oktyabrdagi buyrug‘i bilan tuman hududidagi MFYlarda faoliyat ko‘rsatayotgan 21 nafar xotin-qizlar faollari qisqartirilgan va qisqartirilgan xotin-qizlar faollarining (yakuniy xisob-kitob) ish haqlarini to‘lash uchun Dehqonobod tuman hokimligining 2025-yil 4-fevraldagi 14-14/76-sonli xatini xamda Dehqonobod tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limining 2025-yil 4-fevraldagi 23-sonli xatini inobatga olib, tuman mahalliy budjetining 2025-yil uchun tasdiqlangan parametriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi tuman hokimligi iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining birichi o‘rinbosari F.Nurmatovning taqdim etgan hisobotini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 24-moddasiga muvofiq Xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. Tuman mahalliy budjetining 2025-yil uchun tasdiqlangan parametriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi tuman hokimligi iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari F.Nurmatovning taqdim etgan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 27-moddasiga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentyabrdagi “Kambag‘allikdan faravonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-330-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining 2024-yil 31-oktyabrdagi buyrug‘i bilan tuman hududidagi MFYlarda faoliyat ko‘rsatayotgan 21 nafar xotin-qizlar faollari qisqartirilgan va qisqartirilgan xotin-qizlar faollarining

(yakuniy xisob-kitob) ish haqlarini to‘lash uchun Dehqonobod tuman hokimligining 2025-yil 4-fevraldagi 14-14/76-sonli xatini xamda Dehqonobod tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limining 2025 yil 4-fevraldagi 23-sonli xatini inobatga olib, tuman mahalliy budjetining 2025-yil uchun tasdiqlangan parametriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish ilovaga muvofiq ma’qullansin.

3. Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari (F.Nurmatov)ga;

O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksi talablariga asosan tuman mahalliy budjetining tasdiqlangan parametriga belgilangan tartibda mazkur qarorning ilovasiga muvofiq ko‘zda tutilgan o‘zgartirishlarni kiritish;

tuman mahalliy budjetining 2025-yil uchun tasdiqlangan budjet parametri doirasidagi mablag‘lardan maqsadli, samarali va o‘z vaqtida foydalanish maqsadida tuman mahalliy budjetidan mablag‘ oluvchi budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilarining so‘rovlariga hamda viloyat moliya bosh boshqarmasi bilan kelishilgan holda, shuningdek belgilangan tartiblar asosida o‘zgartirishlar kiritish va kiritilgan o‘zgartirishlar yuzasidan har chorak yakuni bo‘yicha Xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot kiritib borish vazifasi yuklatilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Kengashning mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i U.Usmonov zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi

BOYSARIYEV
G‘AYRAT
HAYITQULOVICH

Xalq deputatlari Dehqonobod tumani Kengashining
2025-yil 28-fevraldagi
VII-6-38-4-57-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Dehqonobod tuman mahalliy budjetining 2025-yil uchun tasdiqlangan parametriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

ming.so‘mda

№	Tashkilotlar nomi	Bo‘lim	Kichik bo‘lim	Bob	Xarajatlar moddasi	Jami summa	*Shundan, choraklar va oylar kesimida*															
							1-chorak jami	yanvar	fevral	mart	**2-chorak jami**	Aprel	May	Iyun	**3-chorak jami**	Iyul	Avgust	Sentabr	**4-chorak jami**	Oktabr	Noyabr	Dekabr
1	Tuman hokimligi (Oila va xotin-qizlar bo‘limi) iqtisod mablag'	7085	999	026	4111100	**-320670**	**0**				**0**				**0**				**-320670**			-320670
					4121100	**-78465**	**0**				**0**				**0**				**-78465**			-78465
2	Tuman hokimligi (kengash kotibiyati) iqtisod mablag'	7011	999	340	4111100	**-14679**	**0**				**0**				**0**				**-14679**			-14679
					4121100	**-3669**	**0**				**0**				**0**				**-3669**			-3669
	Tuman hokimligi iqtisod mablag'	7011	999	018	4111100	**-361311**	**0**				**0**				**0**				**-361311**			-361311
					4121100	**-96766**	**0**				**0**				**0**				**-96766**			-96766
3	Tuman hokimligi (Oila va xotin-qizlar bo‘limi)	7085	400	026	4111100	**190000**	**190000**		190000		**0**				**0**				**0**			
					4121100	**47200**	**47200**		47200		**0**				**0**				**0**			
5	Tuman veterinariya bo'limi	7042	133	250	4111100	**144230**	**0**				**0**				**0**				**144230**			485154
					4111230	**7211**	**0**				**0**				**0**				**7211**			25534
					4121100	**36053**	**0**				**0**				**0**				**36053**			127672
6	Tashabbusli budjet	7019	909	018	4642320	**0**	**-2372**		-2372		**0**				**0**				**237200**			237200

							00		00													
	Umumiy jami	**x**	**x**	x	**x**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**